

TA'LIM JARAYONIDA ENG SAMARALI TEXNOLOGIYALARDAN BIRI BU- MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDIR

Azizova Dinara Rahmiddin qizi
Osiyo xalqaro universiteti
Pedagogika va psixologiya yo'nalishi
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada muammoli ta'lim texnologiyasining afzalliklari yoritilgan bo'lib, Shuningdek, bu metodning muvaffaqiyat omillari va ularning talab etiladigan shartlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Muammoli ta'lim texnologiyasi, interfaol ta'lim metodlari, o'qitish jarayoni, ilmiy tadqiqot usuli, kompetentlik, individuallik, bilim, ko'nikma, malaka.

Abstract: The article describes the advantages of problem-based learning and problem based learning technology. Also, the success factors of the method and its conditions are written in the article.

Key words: Problem-based learning technology, interactive methods, teaching process, scientific research method, competence, individuality, knowledge, skill, qualification, teacher.

Аннотация: В статье выделены преимущества технологии проблемного обучения, а также факторы успеха данного метода и их обязательные условия.

Ключевые слова: Проблемная образовательная технология, интерактивные методы обучения, учебный процесс, метод научного исследования, компетентность, индивидуальность, знание, умение, квалификация.

Kirish. O'quvchilarga ta'lim berishda ijodiy xarakterdagi metodlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bular sirasiga muammoli, izlanishga asoslangan, evristik, tadqiqotchilik, loyihalovchilik, metodlarining mustaqil, individual, guruhli ish usullari bilan uyg'unlashuvini ta'minlovchi metodlarni kiritish mumkin. Mazkur metodlar yuqori darajadagi bilish va moyillikka undash quvvatiga ega bo'lib, o'quvchilarning bilish darajalari va imkoniyatlarini jadallashtirishga muvofiq keladi.

Bugungi kunda, muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan talabalarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida talabalar kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar hamda fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Asosiy qism. An'anaviy pedagogik usuldagi – bilimlardan muammoga qarab – o'quvchilar mustaqil ilmiy izlanish ko'nikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga o'zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. O'zlashtirilgan bilimlar shablonlarini takrorlash bilan bog'liq bo'lgan reproduktiv psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi. Agar inson muntazam tayyor bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga o'rgatilgan bo'lsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini so'ndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni «esdan chiqaradi» Fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda a'lo darajada namoyon bo'ladi va rivojlanadi.

Muammoli o'qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo'ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma'lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo'lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo'ladi, «gap nimada?» degan savol tug'iladi. O'quvchi noma'lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o'qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo'luvchi, sub'ekt-ob'ekt-sub'ekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Muammoli ta'lim o'qitishning eng samarali usulidir. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, talabani uni echishga yo'naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish, pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi-individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi. Muammoli ta'lim nazariyasi talaba intellektual kuchining rivojlantiruvchi ta'limni tashkil qilishning psixologik-pedagogik yo'llari va usullarini tushuntiradi. Shunday qilib, muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi (pedagog) rag'barligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Shuningdek, muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi (pedagog) tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

1. O'quv materialini muammolashtirish;
2. Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish;
3. Ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;

4. O'qituvchi (pedagog) tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;

5. Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda talabalarga bayon etish. Muammoli ta'lim – bu talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asosiy usuli bo'lib, insonning bilish va amaliy faoliyatini boshqaruvchi muayyan shaxsiy sub'ektiv yo'llanma sifatida tushuniladi.

Dunyoqarashni shakllantirish – bu birinchi navbatda shaxsning intellektual – faolligini shakllantirishdir. Ilmiy dunyoqarashni samarali shakllantirishning ikkita muhim sharti mavjud:

* talabalarning tushunchalar tizimini o'zlashtirishga oid faol intellektual fikrlash faoliyati.

* Insonning his-tuyg'usi va emotsiyasiga ta'sir etish, uning bilimini e'tiqodga aylantirish.

Muammoli o'qitishning bosh psixologik-pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat:

talabaning fikrlash doirasini va qobiliyatlarini o'stirish, ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish; muammoni mustaqil yechishda va faol izlanish davrida olingan bilim va ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi, buning natijasida ushbu bilim va ko'nikmalar an'anaviy o'qitishdagidan ko'ra ancha mustahkam bo'ladi;

nostanart muammolarni ko'ra oluvchi, qo'ya oluvchi va yecha oluvchi o'quvchining faol ijodiy shaxsini tarbiyalash; kasbiy muammoli fikrlashni rivojlantirish – har bir aniq faoliyatda o'zining xususiyatlariga ega.

Xulosa. Muammoli o'qitish o'quvchilarni sergaklikka, faollikka chorlaydi. O'quvchilarni mustaqil fikrlay olish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi, kompetentligini rivojlantirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.X. To'xtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika. Darslik. T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010 y. -400 bet.
2. O'.J. To'ldoshev. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017 y. -376 bet
3. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
4. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
5. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.– T.: “Fan va texnologiya”. 2019 y. -296 bet.



6. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.
7. G.Niyozov, M.E.Axmedova. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. - T.: "Noshir" 2011 y. -140 bet.-434 bet.
8. S.M.Raxmonova DIDACTIC POSSIBILITIES OF IMPROVING THE METHODOLOGY FOR PREPARING FUTURE EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITIES. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELTISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12 <https://literature.academicjournal.io> 16.12.2022y.36-40 bet.
9. S.M. Raxmonova МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРГА ТАЪЛИМ БЕРИШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ. Respublika OAK.Илимий-методикалык журнал 5/1 2022 y.101-105 bet
10. S.M. Raxmonova, D.M. Murotovna. Ta'lim jarayonida pedagogning innovatsion kasbiy faoliyati va xususiyatlari. SCIENCE AND EDUCATION."Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz June 2023 / Volume 4 Issue 6 ISSN 2181-0842 / Impact Factor 3.848 694
11. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011y. -128 bet.
12. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.– T.: "Iqtisod-moliya" 2009 y. – 240 bet.
13. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: "Sano-standart", 2017 y.

